

SALJUQIY TURKLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI VA INQIROZI.

*Mualif: Denov Tadbirkorlik va Pedagogika
instituti Tarix Mamlakatlara yo'nalishi bo'yicha*

*1-kurs talabasi **Do'stmurodov Bahodir***

Telefon Raqam: +998952287981.

Email adres: zazu873@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada Saljuqiylar davlatining O'rta Osiyoda joylashgani, Kichik Osiyoda qanday qilib borib qolgani va qayerlarda ko'chmanchi bo'lib yurgani shu davrda mavjud bo'lgan davlatlar bilan aloqalari qanday bo'lgani haqida batafsil malumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Somoniylar, Qoraxoniylar, Marv, Xuroson, Zarafshon, Nurota, Jand, Shohmalik, Vizantiya, "O'g'uznoma",

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Turk qabilalari Kichik Osiyoda va Bolqonda birinchi marta xalqlarning buyuk ko'chishlari davriada paydo bo'lgan. VII- asrga qadar bu xududlarga xunlar, avarlar, suvarlar, bulg'orlar, xazarlar va ko'pgina boshqa shu kabi qabilalar bilan birga kirib kelgan ko'chmanchi turklar mahalliy etnoslar bilan tez orada singib ketganlar.

VIII-X asrlarda O'rta osiyo va Xurusondan turklarning navbatdagi oqimi kirib kela boshladi, shunday qilib Kichik osiyoning sharqida Vizantiya bilan chegarada turk qabilalarining manzilgohlari paydo bo'ladi. Turk qabilalari davridan buyon Yettisuvdan sharqdagi to'qqiz og'izlarning bir tarmog'i bo'lgan ko'chmanchi o'g'uz qabilalari (arab manbalaridagi g'uzlar) istiqomat qilib kelishar edi." O'g'uznoma " dostonida o'g'uzlar haqida mifalogik, afsonaviy tarixiy malumotlar keltirilgan. Xalifa al Qayum (1031-1075) To'g'ulbekni "Sharq va G'arbning sultoni va shohi" deb e'lon qildi.

To'g'ulbekning vafotidan keyin o'g'li Alp Arslon (1063-1072) Armaniston va sharqiy Guruziyani (1064) egalladi. 1071-yil avgustdagi Mansikert yaqinidagi jangda esa Vizantiya imperatori Roman IV Diogenning tarkibida arman, guruzin va rus o'teryadlari ham bo'lgan yirik qo'shiniga qaqshatqich zarba beradi.

VIII-asrning II – yarmida o'g'uzlar yettisuvni tark etishib Sirdaryoning quyi qismida ko'chib yurishadi. O'g'uz qabilalari orasida o'z nomini afsonaviy yo'l boshlovchilari Saljuq ibn Tog'ak nomidan olgan saljuqiylar alohida ajralib turgan. Saljuqiylarning kuchayib borishlari ularning Xorazm, Buxoro va G'azna amirlari bilan doimiy to'qnashuvlarga olib keladi [158]. Sunniylikning tarafdori bo'lgan To'g'ulbek

o'zining xalifaning himoyachisi deb e'lon qilib, 1055-yida Bag'dodni osongina ishg'ol qildi.[159]

XI asrning birinchi yarmidagi saljuqiylar harakati, garchi qisman Movarounnahr hududida kelib chiqqan bo'sa ham, ammo undan uzoq joylarda yuz berdi. Bu harakat bilan bog'liq voqealar Old va O'rta Osiyo sharqida katta aks sadoga ega bo'ldi. Saljuqiylar harakatiga Saljuqning nabiralari aka –uka To'g'rulbek va Chag'ribek Davud hamda ularning amakisi Musa Yabg'u boshchilik qilar edi. Ular qiniq nomli qadimgi Turkman qabilasidan edilar. Aka-uka saljuqiylar ko'chmanchi Turkman qabilalari ustidan bosshchilik qilgan edilar. Bu qabilalar tarkibiga boshqa tukman urug'- qabila urug' va qabilalar birlashmalari bilan ham qarindoshlik munosabatida bo'lgan birqancha urug' va qabilalar kirgan bo'lsa kerak. Dastlab saljuqiylar quyi Sirdaryodagi Jand degan joyda ko'chib yurar edilar, ammo Shohmalik nomli hokim bilan urushib qolganlari tufayli Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'iga, somoniylar tomonid an ularning ko'chib yurishi uchun berilgan Nurga ketishga majbur bo'lgan edilar. Somoniylar Saljuqiylar bilan totuv yashar edilar, bu totuvlik somoniylarning qoraxoniylarga qarshi olib borgan kurashlarida turkmanlarning somoniylarga bergan yordamiga asoslangan bo'lib, ammo bu yordamga doim ishonish qiyin edi.

XI asrning birinchi yarmida Turkman –saljuqiylarning ahvoli juda og'irlashdi. Gap shundaki, Movaranunnahrga, shu jumladan Zarafshon vodiysiga qoraxoniylar bilan birga ko'pchilik yurish uchun joy kerak edi. Shu jumladan, turkmanlar o'rnashib olgan zarafshon daryosining o'ng qirg'og'idagi Nurdan to Samarqandgacha bo'lgan qismi ham kerak edi.

Movoraunnahrda Ilekxon Alitagin xo'jayinlik qilib turgan davrlarda (1034-yilda o'lgan) saljuqiylarga unchalik tegmas edilar. Uning vafotidan keyin Alitaginining o'g'illari yosh bo'lgani uchun butun ishni oz qo'lga olgan Tunush davrida ularning ahvoli juda og'irlashdi.

Nihoyat, sharoit ularni Zarafshon vodiysini tashlab ketishga majbur qildi. Xorazmshoh Xorun 1034-yida ularga rabot Mashoi, Sho'raxona va Goviyhar hududlaridan yer ajratib berdi, ammo Jand hokimi ularga hujum qildi va 8 ming kishini o'ldiradi. Saljuqiylarning boshiqlari yuqorida aytib o'tilganidek To'g'rulbek, Chag'ribek, Davud va Musa Yabg'u bu yerdan ketishga va Mahmud G'aznaviyning o'g'li Masuddan joy so'rashga ahd qildilar. (Ma'sud 1030-yildan 1041-yilgacha podsholik qilgan edi.)

Saljuqiylar o'zlariga Saraxs, Marv, Abiverd, Nes va Farovi rayonlarida ko'chib yurishlariga ruhsat berilishini so'rab, Xurosonning G'aznaviy saroyiga elchi yubordilar. Bu joylar ko'chib yurish uchun qulay edi, ulardan ba'zilar, masalan Saraxs va Abiverd manzillarida bahorikor yerlar ko'p bolib, ko'manchilar tomonidan juda qadrlanar edi.

1025- yilda Mahmud davrida turkmanlar bilan bo'lib o'tgan hamma voqealar shunday kuchli tassurot qoldirdiki, Xuroson noibiga To'g'rubekning vakillari bilan g'arazli munozaralar olib borishga to'g'ri keldi. Ammo turkmanlar juda matonatli edilar va nihoyat, to'liq bo'lmasa ham, o'z maqsadlariga erishdilar. 1035- yilda Nishopurda imzolangan shartnomalarga ko'ra, ular Nes, Farovi va Dehiston deb nomlangan joylarni oldilar, ammo bu safar ham, bundan o'n yil ilgari bo'lgani kabi, dehqonchilik qiladigan aholi bilan tinch munosabatda bo'lolmadilar.

XI-asr oxirlaridan boshlab, saljuqiylar davlati parchalana boshlaydi. Chunki birinchi salib yurishi natijasida saljuqiylar davlati Guruziya, Shirvon hamda Kichik Osiyoning sohil bo'yi hududlaridan, suriya va falastininng bir qismidan ajralgan (1096-1099 yillar). Saljuqiylar davlatidan bir necha mustaqil sultonliklar ajralib chiqqan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Basan, Usmon Aziz. "Turk tarixshunosligidagi buyuk saljuqiylar". Edinburg universiteti, 2002-yil.
2. Tovus, A.C.S. "Buyuk Saljuqiylar imperiyasi". Edinburg: Edinburg universiteti matbuoti 2015-yil.
3. Tovus, A.C. S. va Sara Nur Yildiz, eds. "Kichik Osiyo saljuqiylari:O'rta asrlarda O'rta sharqdagi sud va jamiyat".London:I.B. Tauris, 2013-yil.
4. Sardor Umarov Jahon Tarixi (Sharq mamlakatlari o'rta asrlarda) Samarqand-2019 [158-159]